

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.91.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

KARIMOVA SEVARA SHAXRIDDIN QIZI

**TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNI TABIATNI
ANGLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH (1-2 SINFLAR MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Karimova Sevara Shaxriddin qizi

Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarni tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (1-2-sinf misolida).....3

Каримова Севара Шахриддин кизи

Совершенствование методики развития способности учащихся понимать природу при преподавании естественных наук (на примере 1-2 классов).....21

Karimova Sevara Shaxriddin qizi

Improving the methodology of developing pupils' abilities to understand nature in the teaching of natural sciences (on the examples of 1-2 forms).....41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....47

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.91.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

KARIMOVA SEVARA SHAXRIDDIN QIZI

**TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNI TABIATNI
ANGLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH (1-2 SINFLAR MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Biologoya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Guliston– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PHD/Ped5464 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.Guldu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Elmuratova Dilrabo Muxammatovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qaraxonova Lobar Musoxonovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), katta ilmiy xodim

Shodiyeva Matluba Jo'rayevna
pedagogika fanlari doktori(DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:


Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.91.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil «24» 05 soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze. Tel.: (+99867) 225-39-25, faks: (+99867) 225-39-25; E-mail: glinfo.bio@mail.uz).

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (88- raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze. Tel.: (99867) 225-39-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «5» 05 kuni tarqatildi.

(2025 - yil «5» 05 dagi 6 - sonli reyestr bayonnomasi)



A.Pazilov

Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash raisi,
b.f.d., professor

F.P.Gaibnazarova

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi,
b.f.f.d.(PhD) dotsent

J.X.Karshibayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, b.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim muassasalarida fan va zamonaviy innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarda tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Umumiy ta'limda tabiiy-texnik bilimlarni takomillashtirish, kasbiy kompetensiyalari ilg'or texnologiyalar vositasida rivojlantirish, mantiqiy fikrlash va abstrakt tafakkurini rivojlantirish, tabiatni e'zozlashga qaratilgan amaliy loyihalar tizimli ravishda bajarilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida bilim oluvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlay oladigan ta'lim mazmunini yaratish, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tabiiy fanlarni o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. 1-2-sinf o'quvchilarini kichik yoshidan tabiiy fanlarni o'qishga rag'batlantirish, ularda olam haqida yaxlit tasavvur paydo qilishga yordam berish, ta'lim sifatini oshirish uchun mavjud fanlarning integratsion tarzda o'qitilishini ta'minlash, didaktik jarayonlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib boradi.

Respublikamizda so'ngi yillarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarini shakllantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiat hodisalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish, bilishga bo'lgan qiziqishini oshirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Bugungi kunda "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi" ustuvor vazifalari sifatida belgilangan. Bu esa o'z navbatida 1-2-sinf o'quvchilarning tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari takomillashtirish imkoniyatini yanada oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi PF-5538-son "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni, 2018 yil 5 sentyabrdagi PQ-3931-son "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-son "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2020 yil 31 martdagi 67-son "Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturini ishlab chiqish to'g'risida"gi, 2020 yil 9 dekabrdagi 298-son "Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturining dastlabki loyihasini tasdiqlash va tajriba-sinovdan o'tkazish to'g'risida"gi, 2021-yil 27-avgustdagi 274-sonli "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida STEM ta'limi tizimini joriy etish to'g'risida"gi buyruqlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar

rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. R.Mavlonova, A.R.Meliboev, Sh.M.Mirzaaxmedova, M.I.Nuriddinova, F.I.Ochilov, A.K.Raximov, D.Sharipova, M.K.Shirinovning tadqiqot ishlarida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Atrofimizda olam”, “Tabiatshunoslik” fanlarini o‘qitish, M.M.Isabayeva, A.K.Raximov, J.O.Tolipova, G.S.Ergashevaning biologiya o‘qitish metodikasini pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar, U.B.Baxodirova, G.S.Ergasheva, L.M.Qaraxonova, tabiiy (SCIENCE) fanlarni o‘qitishda elektron ta’lim resurslar va virtual ta’lim texnologiyalariga oid tadqiqotlar, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining tabiatshunoslik fani va ushbu fan doirasida integrativ yondashuvni tarkib toptirish bo‘yicha metodik tayyorgarligini takomillashtirish doirasida M.M.Aliqulova, N.J.Isakulova, Sh.M.Kamolxo‘jayev, Z.N.Matyakubova, E.O.Turdiquipov, D.M.Elmuratovalar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari Ye.N.Arbusova, S.B.Baxvalova, Ye.N.Belyayeva, T.A.Bespamyatnix, O.B.Bogomolova, Ye.S.Gladkaya, N.A.Goncharova, A.V.Danilkevich, N.Ibodov, J.J.Karbozova, V.A.Kuklev, R.R.Nasibullov, A.V.Obrubova, A.Yu.Uvarov, N.B.Firsova, Yu.A.Komarov, T.I.Krilova, Ye.A.Kraxina, A.S.Lisenko, O.G.Petrova, V.A.Smirnova, N.P.Stepanova, A.N.Xodusovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorij davlatlarida kichik yoshdagi bolalarda tabiatni anglash bilan bog‘liq fanlarni o‘qitishni tashkil etish J.Cambria, Aaron D.Isabelle, A.Zinn Gilbert, L.Satasha, Yehudit Judy Dori, Z.R.Mevarech, M.Robert, Capraro, M.Mary Capraro, R.James Morgan, F.S.Azevedo, A.J.Egalite, B.Kisida, D.S.Yeager, G.M.Walton, P.Cantor, P.Carter, L.Darling-Hammond, M.A.West, A.Wigfield, C.A.Wolterslar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining kasbiy-ijodiy ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutidagi amalga oshirilgan I-OT-2019-8 “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining tabiiy (fizika va biologiya) fanlari uchun yangi avlod elektron o‘quv-metodik qo‘llanmalarini yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan (2019-2021 yy.).

Tadqiqotning maqsadi “Tabiiy fanlar”ni o‘qitishda 1-2-sinf o‘quvchilarning tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini zamonaviy ta’lim shakl, metod va vositalaridan foydalanish asosida takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifalari:

“Tabiiy fanlar”ni o‘qitishda 1-2-sinf o‘quvchilarning tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik muammo sifatida o‘rganish, tahlil qilish, aniqlashtirish;

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tabiiy fanlar”ni o‘qitishda o‘quvchilarni tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish, zaruriy didaktik materiallarni o‘rganish, zamonaviy yondashuvlar asosida metod va vositalarni joriy etish imkoniyatlarini takomillashtirish;

1-2-sinflarda “Tabiiy fanlar”ni o‘qitishda o‘quvchilarda tabiatni asrash, avaylash, uni o‘zlashtirish va anglash bo‘yicha ilmiy asoslangan ilmiy metodik mohiyatni aks ettirish asosida ularda tabiatni ongli tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalar aks etgan metodik model ishlab chiqish vositasida takomillashtirish;

kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishni ko‘p bosqichli tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi asosida o‘rganish, tekshirish, kuzatish va statistik tahlil asosida samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida tabiiy fanni o‘qitishda o‘quvchilarda tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik tizimini faollashtirish jarayoni belgilanib, Sirdaryo viloyati Sardoba tumanidagi 22-sonli, Boyovut tumanidagi 22-sonli, Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumanidagi 22-sonli, Yangiobod tumanidagi 1-sonli, Buxoro viloyati Olot tumanidagi 12-sonli ta’lim muassasalarining 625 nafar o‘quvchilari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarga tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishining vazifalarini bajarish, ishning maqsadi, obyekti, predmetidan kelib chiqib, *nazariy metodlar* (o‘quv-metodik adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlari, rivojlangan davlatlarning va mamlakatimizda yaratilgan milliy o‘quv dasturlarining qiyosiy tahlili, mavzuga oid xorijiy va mahalliy pedagogik tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish), *empirik* (boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilan suhbat, anketa so‘rovnomalar, trening mashg‘ulotlar va tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish, ma’lumotlarni tizimlashtirish), tajriba-sinov natijalarni matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Tabiiy fanlar”ni o‘qitishda o‘quvchilarni tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlar tizimlar, atrof-muhit bilan bog‘liq tabiat hodisalari, tabiatni anglashning dastlabki ilmiy tushunchalari, o‘simlik va hayvonlar, tiriklik komponentlari haqidagi bilimlarni shakllantirish asosida aniqlangan;

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tabiiy fanlar”ni o‘qitishda o‘quvchilarni tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonlari vaziyatlarini tahlil etish, mantiqiy mushohada yuritish, farazlar va voqeliklarni idrok etish hamda o‘z taassurotlarini aniq va lo‘nda bayon etish va amaliy ishlarni mustaqil bajara olish va dalillay olish asosida takomillashtirilgan;

1-2-sinflarda “Tabiiy fanlar”ni o‘qitishda o‘quvchilarda tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik modeli ishlab chiqilgan va takomillashtirish asosida ta’limning turli shakl, bosqichlarida jamiyat va atrof olam bilan bog‘liq fikrlarni bayon eta olish, ulardagi anglash ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish hamda tabiatdagi obyektlarini amaliy kuzatish va bajarishda faollik ko‘rsatish qobiliyatlarini aniqlash asosida faollashtirilgan;

o‘quvchilarda tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish samaradorligi o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi asosida o‘quvchilar faoliyati bevosita va bilvosita kuzatish, hissiy idrok etish, abstrakt tafakkur qaror topshirishda dalillararo aloqasidan foydalanish hamda tabiatshunoslik bilimlarini

tizimlashgan holatda qabul qilishiga xizmat qiluvchi metod va vositalardan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari oshishi vositasida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan:

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida 1-2-chi sinflar uchun yaratilgan Tabiiy fan darsligida mavzulardan tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishda xizmat qilinadigan mavzular saralanadi va ularning metodik ta'minoti takomillashtirildi;

O'quvchilarning tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha metodik model ishlab chiqildi, mazkur modelning mazmuniga xizmat qiluvchi o'qituvchilar uchun "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi" nomli uslubiy qo'llanma va bo'lajak o'qituvchilar uchun "Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma yaratildi va amaliyotga joriy etildi;

1-2 sinf o'quvchilarining Tabiiy fandan bilim, ko'nikma va malakalarini hamda ularda amaliy va ilmiy savodxonlik kompetensiyasi rivojlantirish uchun uni o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun o'quv qo'llanma, o'quvchilarning tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordamchi vosita sifatida "**Tabiiy fanlar**" deb nomlangan elektron ta'limiy resurs yaratildi(<https://tabiiy.yoshavlod.uz/1-sinf-uchun/1-bob/>) va amaliyotga joriy qilindi.

O'quvchilarning mustaqil ishlashlari va ota-onalar hamkorligini rivojlantirish maqsadida "**Kuzatish daftari**" ishlab chiqildi va samaradorlikka erishildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishda qo'llanilgan yondashuv va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plamlari, OAK e'tirof etgan respublika va xorijiy jurnallarda chop qilingan maqolalar, metodik qo'llanmalar, keltirilgan tahlillar va pedagogik tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumta'lim muassasalarida tabiiy fanlarni o'qitishda izlanish faolligi va tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik (kichik tadqiqot, amaliy ish, loyiha ishi) topshiriqlar kiritilganligi tabiiy fanni o'zlashtirish samaradorligini oshirishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati umumta'lim maktablarida tabiiy fanlar darsligi (darslik va o'quvchi daftari) va tabiiy fanlarni o'qitish metodik ta'minoti (o'quv qo'llanma) yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot ishining natijalari kichik tadqiqot, amaliy, loyiha ishlari o'quv faoliyati davomida olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash va tabiatni anglash ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan fanlararo bog'liqligini ta'minlash bo'yicha zamonaviy ta'lim texnologiyalari tabiiy fanlarga kiritilishi, o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlari orttiradi, ularda kuzatuvchanlik, ijodkorlik, izlanuvchanlik qobiliyatlarini hamda loyihalashtirish va tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarni tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid olingan ilmiy natijalari asosida:

“Tabiiy fanlar”ni o‘qitishda o‘quvchilarni tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlar tizimlar, materia va energiya, masshtab va o‘lchash shakl va funksiya kontekstlash hamda jonsiz tabiat hodisalari, o‘simlik va hayvonlar to‘g‘risida bilimlarni shakllantirish asosida aniqlantirish bo‘yicha tavsiyalar “Tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-may sanasidagi 232-sonli buyrug‘i). Natijada, o‘quvchilarda materia va energiya, mashtab va o‘lchash shakl va funksiya kontekstlash hamda jonsiz tabiat hodislari, o‘simlik va hayvonlar to‘g‘risida bilimlarni shakllangan;

umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida “Tabiiy fanlar”ni o‘qitishda o‘quvchilarda tabiatni asrash ko‘nikmalarini rivojlantirish modeli jamiyat va atrof olam bilan bog‘liq fikrlarni izhor etish, anglash ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich hosil qilish hamda tabiat obyektlarini kuzatish topshiriqlarini ishlab chiqishda faollik ko‘rsatish qobiliyatlarini aniqlash asosida faollashtirish bo‘yicha tavsiyalar “Tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-sonli buyrug‘i). Natijada, o‘quvchilarda jamiyat va atrof olam bilan bog‘liq fikrlarni izxor etish, aglash ko‘nikmalari va tabiat obyektlarini kuzatish topshiriqlarini ishlab chiqishda faollik ko‘rsatish qobiliyatlari faollashtirilgan;

umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida “Tabiiy fanlar”ni o‘qitishda o‘quvchilarni tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonlari vaziyatlarini tahlil etish, mantiqiy mushohada yuritish, farazlar va voqeliklarni idrok etish hamda o‘z taassurotlarini aniq va lo‘nda bayon etish modellashtirish, induktiv va deduktiv fikrlash layoqatlarini dalillay olish asosida takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar “Tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan; (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-sonli buyrug‘i). Natijada, o‘quvchilarda vaziyatlarini tahlil etish, mantiqiy mushohada yuritish, farazlar va voqeliklarni idrok etish, o‘z taassurotlarini aniq va lo‘nda bayon etish, modellashtirish, induktiv va deduktiv fikrlash layoqatlarini dalillay olishlari takomillashtirilgan;

o‘quvchilarda tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish samaradorligi o‘quvchilar faoliyati bevosita va bilvosita kuzatish, hissiy idrok etish, abstrakt tafakkur qaror topshirishda dalillararo aloqasidan foydalanish hamda tabiatshunoslik bilimlarini tizimlashtirish va ichki aloqalarini o‘rnatish asosida takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar “Tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-sonli buyrug‘i). Natijada, o‘quvchilarda bevosita va bilvosita kuzatish, hissiy idrok etish, abstract tafakkur qaror topshirishda dalillararo aloqasidan foyalanish hamda tabiatshunoslik bilimlarini tizimlashtirish va ichki aloqalarini o‘rnatishlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi

tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, shundan 2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda ilmiy maqolalar nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 156 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan; fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan; tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan; tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tabiiy fanni o'qitishda o'quvchilarning tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning mavjud holati bayon qilingan.

“Tabiiy fanlar” fanining o'qitilishi o'quvchilarda tabiiy-ilmiy, texnik, ekologik va iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish hamda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda fanlarning o'zaro integratsiyasi obyekt tomonidan tabiatni bir butun borliq sifatida anglanishi, ularning tafakkurida olamning yagona tabiiy-ilmiy manzarasi vujudga kelishiga zamin yaratadi.

“Tabiiy fanlar” dasturida kiritilgan mavzular quyidagi asosiy kontekstlarda ifodalangan: tizimlar (o'simlik, hayvon, odam organlari sistemasi, Quyosh sistemasiga oid bilimlar); materiya va energiya (issiqlik, yorug'lik, tovush); shakl, tartib va tuzilish (jonli va jonsiz tabiat, tirik organizmlar); masshtab va o'lchash (ob-havo harorati, masofa, Er va Koinot); barqarorlik va o'zgarish (tirik organizmlarning rivojlanishi, ob-havo, yil fasllari, yashash joyi); shakl va funksiya (tirik organizmlar, o'simlik va hayvonlarning xilma-xilligi, issiqlik, yorug'lik va tovush manbalari).

Tadqiqotchi M.Nuriddinova tabiatshunoslikni o'qitish metodlarini uchta asosiy guruhga bo'lib o'qitish tavsiflangan, ya'ni og'zaki metodlar – o'qituvchining materialni og'zaki bayon qilishi, suhbat, kitob bilan ishlash; ko'rgazmali metodlar – namoyish qilish (ko'rsatish), mustaqil kuzatishlar, ekskursiyalar; amaliy metodlar – og'zaki va yozma mashqlar, grafik (chizma) va laboratoriya ishlari. Tadqiqot ishlarida mazkur metodlar orqali tabiatshunoslik fanini o'qitish samaradorligiga erishish asoslangan.

Olim M.K.Shirinovning tadqiqot ishida suhbat metodi tabiatshunoslik darslarida ko'proq qo'llanilishi muhimligi ta'kidlanilgan. Tadqiqot ishida kirish suhbat, takrorlovchi suhbat, bayon qiluvchi suhbat va yakunlovchi suhbat kabi turlarining

dars jarayonini tashkil etishda muhim o'zni izohlanilgan. Shuningdek, tabiatshunoslik fanini o'qitishda uzviylik va uzluksizlik tamoyili didaktik imkoniyatlari o'rganilgan.

O'quvchilarning tabiiy sharoitlarda nazariy bilimlarni o'rganishga yo'naltirilgan harakatlari ayrim vaqtlarda samarasiz ham bo'lishi mumkin. Quyidagi holatlar ana shunday oqibatni keltirib chiqaradi: o'quvchilarning bilish faoliyati aniq maqsadga yo'naltirilmasa; o'quvchilarning e'tiboriga tabiatni o'rganishdan ko'zlangan aniq maqsad asosida o'quv topshiriqlari havola etilmasa; boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiatni bilishga bo'lgan hissiy yondashuvlari ilg'or didaktik metod va usullar yordamida rivojlantirilib borilmasa; fan o'qituvchilari mavjud vaziyat hamda o'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini o'zaro uyg'unlashuviga erisha olmasa va boshqalar.

Tabiatni o'rganishga bo'lgan qiziqish quyidagi ikki muhim jihatning namoyon bo'lishiga xizmat qiladi: boshlang'ich sinf o'quvchilarida sezgi organlari faoliyatini rivojlantirish, turli ranglarni farqlay hamda bir-biridan ajrata olish, rang-barang ovozlarni tinglay va bir-biridan ajrata olish, hid va ta'mlarni seza bilish, his-tuyg'ularni shakllantirish, tengdoshlari hamda atrofdagilar bilan tashkil etiluvchi muloqot jarayonida ulardan o'rinli foydalanish; tabiatni o'rganish jarayonida ta'lim mazmunini to'laqonli ochib berishga xizmat qiluvchi maqbul didaktik vositalarni tanlash imkonining yuzaga kelishiga olib keladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda ularni kichik tadqiqotlar olib borishga rag'batlantirish, ularda tabiatni anglashga oid bilimlarni mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalarini hosil qilish ijobiy natijalarni qo'lga kiritishni kafolatlaydi. O'quvchilarning ta'lim jarayonidagi aqliy faoliyatining samaradorligi, faollik darajasi ularda qiziqishni shakllantiruvchi asosiy shart hisoblanadi. Bu o'rinda o'quvchilarda bu holatni qaror toptirishga xizmat qiluvchi ta'lim shakl, metod va usullaridan o'rinli, maqsadga muvofiq, samarali foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Bizning nazarimizda bu kabi yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatlarini yuqori darajada baholashni anglatadi. O'quv materiallari mazmunini zarur darajadan ortiq murakkablashtirish o'quvchilarda hamma vaqt ham ijobiy his va tuyg'ularni rivojlantirishga yordam bermaydi, aksincha, ortiqcha jismoniy va ruhiy zo'riqishni keltirib chiqaruvchi materiallar mavjud qiziqish darajasining susayishiga sabab bo'ladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning aqliy qobiliyatlariga tayanish, ularning hissiy-irodaviy sifatlarini inobatga olmaslik maqsadga erishishda bir yoqlama harakat qilishni ifodalaydi.

Tadqiqot ishlarida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-2-sinflarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda tabiatni bilish va anglashga bo'lgan qiziqishni shakllantirish muammosining yechimini to'g'ri hal etish bu jarayon mohiyatini to'la anglashni talab etadi. Jarayon mohiyatini anglash uning asosini tashkil etuvchi tayanch tushunchalarni sharhlashni taqozo etadi. O'rganilayotgan muammoning mohiyatini yoritishda "qiziqish" tushunchasi yetakchi o'rin tutadi. Xo'sh, qiziqish nima? Tabiatni bilish (o'rganish) hamda qiziqish o'rtasida qanday aloqadorlik, o'zaro bog'liqlik mavjud? Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda asosiy e'tibor nimaga qaratilishi zarur? Bu savollarga

ijobiy javob topish tadqiqot ishining to'g'ri olib borilishi va ijobiy yakunlanishini kafolatlaydi.

Mantiqiy fikrlash va abstrakt tafakkur boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiat va uning asoslari haqidagi bilimlarni nazariy jihatdan o'rganish imkoniyatini ancha kengaytiradi. Buning natijasida o'quvchilarning tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishlari darajasi va mazmunini ifodalovchi jihatlar ko'zga tashlana boshlaydi. Chunonchi, tabiat jismlari yoki hodisalarning asoslari, ularning kelib chiqish (yoki sodir bo'lish) sabablari, ichki aloqalari, ular o'rtasidagi munosabatlar, asosiy belgilari, o'ziga xos xususiyatlarini anglash kabi holatlarning namoyon bo'lishi yuqorida qayd etilgan fikrning isbotidir.

Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarda predmet va hodisalarning ichki xususiyatlarini bilishga nisbatan intilish yuzaga keladi, jumladan, "Nega yomg'ir yog'adi?", "Buloqlar qanday hosil bo'ladi?". Bu kabi intilishning yuzaga kelishi va mustahkamlanishi o'quvchilarda tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishning nisbiy barqarorligi va uning differensiyalanishiga ko'ra tavsiflanadi.

Tabiat bilan bevosita, faol muloqotda bo'lish boshlang'ich sinf o'quvchilar tomonidan tashkil etilayotgan aqliy faoliyat jarayonini jadallashtiradi. Bu holat o'quvchilarning fikrlash tarziga ta'sir o'tkazib, ularda tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishni hosil qiladi hamda aqliy qobiliyatlarini takomillashtiradi.

Bilish faoliyatining obyekti sifatida tabiat boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy hodisalar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, tabiiy muhitning insonlar hayotidagi muhim ahamiyati to'g'risida yetarli darajada ma'lumot bera olish imkoniyatiga ega.

Tabiatni anglashdagi imkoniyatlarning ortib borayotganligi boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuzaga kelgan qiziqishni yanada oshirishga yordam beruvchi o'quv materiallarining darsliklar sahifasida o'z aksini topishini taqozo qiladi. Shu sababli "Tabiiy fanlar" bo'yicha tashkil etilayotgan ta'lim jarayonini yuqorida ta'kidlangan omillar bilan boyitish kutilgan natijani qo'lga kiritilishini kafolatlaydi.

Dissertatsiyaning **"1-2-sinf sinf o'quvchilarida tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning hozirgi holati"** deb nomlangan ikkinchi bobida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik tizimi, mazkur tizimni tashkil etishdagi shakl, metod va vositalarning bayoni, shuningdek, tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishni takomillashtirishning didaktik modeli haqida bayon qilingan.

"Tabiiy fanlar" o'quv predmetining vazifasi o'quvchilarni tabiat bilan tanishtirish usullari, ish shakllari, shuningdek, pedagog, psixolog olimlar va mutafakkirlarning tabiatning inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlari bilan tanishtirish va nazariy bilimlar berishga qaratiladi. Bu fanning didaktik mohiyati falsafa, biologiya, pedagogika, psixologiya, fiziologiya va barcha metodikalar bilan bog'liq holda bir-birini to'ldirib, mustahkamlaydi.

Bolalarning jonsiz tabiat hodisalari, o'simliklar va hayvonlar, inson mehnati haqidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytirish haqida boyitish, shuningdek, o'simliklar o'stirish, hayvonlarni parvarish qilishda bolalarda oddiy ko'nikmalar hosil qilish ta'lim berishning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bunda bolalarda

kuzatuvchanlik, bilimga qiziqish, tafakkur va mantiqiy nutq rivojlanadi, soʻz boyligi ortadi, yangi tushunchalar hosil boʻladi.

1- va 2-sinfda oʻquvchilarning “Tabiiy fanlar” boʻyicha tushunchalarni egallash uchun bevosita darslikdagi mavzular, amaliy mashgʻulotlari va loyiha ishlarini samarali tashkil etish oʻziga xos ahamiyat kasb etadi. Har bir mavzu oʻquvchilarga tabiiy fanlar orasidagi integrativ aloqadorlikni samarali tashkil etish imkoniyati yaratilgan. Oʻquvchilar tabiiy bilimlarni egallash jarayonida biologik, geografik, astronomik va fizik tushunchalarni belgilangan mavzularni oʻrganish va anglash asnosida olib boriladi. Tabiiy fanlar mazmunida amaliy mashgʻulotlar soni koʻpaytirilgan va 1 ta loyiha ishi qoʻshilgan. Shu sababli oʻquvchilar koʻproq amaliy ish bilan shugʻullanish imkoniyatiga ega boʻladilar. Oʻquvchilarni uyga berilgan vazifalarini oila aʼzolari bilan birgalikda bajarishga boʻlgan imkoniyat ham ularni fanni mustaqil va mustahkam oʻrganish imkonini yaratadi.

Bolalarni tevarak-atrof va tabiat bilan tanishtirish, ularda tabiat hodisalarini qanday yuzaga kelishi haqida boshlangʻich tasavvur hosil qilish, ilmiy dunyoqarash koʻrsatkichlarini shakllantirish, tabiatga muhabbat uygʻotish va undan oqilona foydalanishni oʻrgatish bevosita boshlangʻich sinfda “Tabiiy fan” orqali amalga oshiriladi.

“Tabiiy fanlar” boʻyicha aksariyat mavzularni oʻrganishda darslarning tabiiy sharoitlarda tashkil etilishiga jiddiy eʼtibor qaratildi. Bu oʻrinda quyidagi holatlar inobatga olindi:

mahalliy tabiiy sharoitni belgilangan mavzular asosida “noanʼanaviy shakl” (masalan, ekskursiya shakli)da oʻrganish imkoniyatini aniqlash;

har bir mavzuning mohiyatiga koʻra oʻquvchilar tomonidan ularning puxta oʻzlashtirilishiga imkon beruvchi aniq tabiiy obyekt (sharoit)ni avvaldan belgilab olish;

muayyan mavzular boʻyicha darslarni tabiiy sharoitlarda tashkil etilishi rejalashtirilayotganligi xususida oʻquv muassasasi rahbariyatini avvaldan ogoh etish;


darslarni nostandart sharoitlarda uyushtirilishining oʻrta taʼlim maktablarining umumiy oʻquv rejasi va jadvaliga salbiy taʼsir etmasligining chora-tadbirlarini belgilash;

tabiiy sharoitlarda tashkil etiluvchi darslarning aniq maqsadini belgilash hamda ularning muayyan loyiha asosida amalga oshirilishiga erishish;

darslarni tabiiy sharoitlarda tashkil etishdan oldin oʻquvchilarni xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirish, mashgʻulotlar jarayonida ularning mazkur qoidalar hamda belgilangan tartibga qatʼiy amal qilishlarini taʼminlash.

Fanni tadqiqot sifatida oʻrgatish oʻquvchi oʻquv-tadqiqotdagi ilmiy dalillar va natijalarni taqdim etish bilan cheklanib qolmasdan, ular kundalik hayotida jamiyat va atrof olam bilan bogʻliq muammolarga oʻz fikrini bildirish; kuzatishlar asosida dalillarni toʻplash va ulardan foydalanishda faol ishtirok etish; ilmiy bilimlarga asoslanib tushuntira olish kabi koʻnikmalarga ham ega boʻlishi lozim. Model asosida “Tabiiy fanlar” mazmuni asosida oʻquvchilarning tabiatni anglash koʻnikmalarini rivojlantirishni maʼlum ketma-ketlikda, bosqichma-bosqich tizim asosida foydalanish imkoniyatini yaratadi (1-rasm).

O'quvchilarning tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishni takomillashtirishning metodik modeli



1-rasm. O'quvchilarning tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishni takomillashtirishning metodik modeli

Ta'kidlash joizki, elektron darslik yoki qo'llanma bilan ishlash o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu ma'noda tadqiqot doirasida o'quvchilarni tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishda bevosita raqamli ta'lim vositalaridan foydalanishga e'tibor qaratildi. Maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, 1-2-sinflar uchun elektron dasturiy platforma ishlab chiqildi. Undan foydalanish mexanizmi <https://tabiiy.yoshavlod.uz/1-sinf-uchun/1-bob/> sayti kirish va uni bosqichma-bosqich faoliyatini bajarib borish nazarda tutiladi. (2-rasm)

Dasturiy platformada har bir mavzu uchun video darslar berilgan bo'lib, bu videoroliklar mavzuni yanada chuqurroq bilib olishga yordam beradi. Video darslarda bolalar uchun ham o'qituvchi va ota-onalar uchun ham juda foydali. Videodarslar ta'lim jarayonida juda ko'p foydali jihatlarni taqdim etadi.

1-2-sinf tabiiy fanlar darslarida kuzatuv daftari o'quvchilarning tabiatni tushunishlari, kuzatuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish va ilmiy izlanish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Kuzatuv daftari – bu o'quvchilarning tabiatdagi turli hodisa va jarayonlarni o'rganish jarayonida yozuvlar, rasm va grafikalar orqali o'z kuzatuvlarini qayd etishlari uchun mo'ljallangan maxsus daftar.



2.-rasm. Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarni tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirish elektron dasturiy platforma ko'rinishi

1-2-sinf tabiiy fanlar darslarida kuzatuv daftari o'quvchilarning tabiatni tushunishlari, kuzatuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish va ilmiy izlanish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Kuzatuv daftari – bu o'quvchilarning tabiatdagi turli hodisa va jarayonlarni o'rganish jarayonida yozuvlar, rasm va grafikalar orqali o'z kuzatuvlarini qayd etishlari uchun mo'ljallangan maxsus daftar.

“**Kuzatuvchi Bolajon**” deb nomlangan kuzatuv daftarida 1-2-sinf o'quvchilari har kuni dars jadvalini, kun, oy, yil, fasl, ob-havolarni belgilab boradilar. Bu kuzatuv daftarimizga qo'shimcha tarzda kunlik kun tartibini bajarganliklarini belgilashni ham kiritildi. (3-rasm) Tadqiqotimiz davomida 1-2-sinf o'quvchilarining tanqidiy va mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish uchun dasturiy platformamizga tabiiy fanlarga oid mantiqiy topshiriqlarni va Qr kodli topishmoqlarni kiritildi.



3-rasm. Kuzatuv daftari

1-2-sinflarda tabiiy fanlar bo'yicha ota-onalar bilan farzandlarning birgalikda topshiriq bajarishi ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish uchun muhim hisoblanadi. Bu yondashuv bir nechta foydali jihatlarni beradi: Ota-onalar farzandlarining ta'lim jarayonida faol ishtirok etib, ularga qo'llab-quvvatlashni ko'rsatadi. Bu bolalarda o'qishga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Birgalikda topshiriq bajarish jarayonida ota-onalar farzandlari bilan vaqt o'tkazib, ularga bilim berish bilan birga muloqotni kuchaytiradi.

Dissertatsiyaning "**Pedagogik tajriba-sinov ishlarini samarali tashkil etish metodikasi**" deb nomlangan uchinchi bobida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining tashkil qilinishi va natijalari bayon qilingan. Tabiiy fanni o'qitishda o'quvchilarni tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirish yuzasidan o'tkazilgan kasbiy-ijodiy ishi quyidagi bosqichlardan iborat: izlanuvchi-ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari, shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari va yakuniy baholash tajriba-sinov ishlari. Tajriba-sinov ishlari 2021-2024 yillarda olib borilgan bo'lib, olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlili, umumiy holda Tabiiy fanni o'qitishda o'quvchilarni tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirilganini ko'rsatish maqsadida olingan natijalarning ishonchligi va samaradorlikka egaligini tekshirishda statistik usullardan foydalanildi.

Tajriba va nazorat guruhi o'quvchilarning soni huddudlar bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlarni tashkil etdi (2-jadval).

2-jadval

Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan o'quvchilar soni (sinflar bo'yicha)

№	Hududlar	I sinf		II sinf		Jami
		TS	NS	TS	NS	
1	Sirdaryo viloyati	59	61	64	63	247
2	Jizzax viloyati	61	63	64	63	251
3	Buxoro viloyati	33	31	32	31	127
4	Jami	153	155	160	157	625

Pedagogik tajriba bir-birini to'ldirib turuvchi uchta bosqichda – *izlanuvchi* (2021-2022-yy.), *shakllantiruvchi* (2022-2023 yy.), *yakuniy-nazorat bosqichlarda*

(2023-2024-yy.) o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlari 2021-2024-yillar mobaynida o'tkazildi.


